

Qasddan badanga og`ir shikast yetkazish jinoyatini jinoiy-huquqiy jihatlarini va kvalifikatsiya qilish masalalari

Abduqodirov Shohruxbek Oybek o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo`llash nazariyasi va amaliyoti” soha mutaxassisligi magistratura talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxs sog`ligiga xavf soladigan qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatini jinoiy-huquqiy jihatlarini o`ziga xos tavsifi yoritiladi. Ushbu maqolada tizimli, xususiy ilmiy usullarga asoslangan holda statistik, formal, mantiqiy va qiyosiy usullardan foydalangan holda huquqni qo`llash amaliyotida mavjud bo`lgan badanga shikast yetkazish uchun javobgarlik muammolari va ular o`rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Bahs va munoraza asosida tegishli xulosa chiqarilib, badanga og`ir shikast yetkazishni kvalifikatsiya qilish masalalari haqida shuningdek sohadagi qonunchilik va qonunosti hujjatlarida belgilangan badanga shikast yetkazish tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: og`ir shikast etkazish, qarshi jinoyatlar sog`liqqa qarshi jinoyatlar, o`lim.

Kirish. Fuqarolarning sog`ligi va jismoniy daxlsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish O`zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining dolzarb vazifalaridandir.

Inson sog`ligi va uning daxlsizligi to`g`risida g`amxo`rlik qilish, uning barcha imkoniyatlarini va ijodiy salohiyatini ro`yobga chiqarish uchun zarur bo`lgan shart-sharoitni yaratish respublika rahbariyatining, davlatning, barcha huquqiy institutlarning, sud-tergov organlarining diqqat markazida bo`lib, O`zbekiston Respublikasi qonunlarining asosini tashkil etadi.

Amaldagi Jinoyat kodeksining 104-moddasiga muvofiq, sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo`lgan qasddan badanga og`ir shikast yetkazish natijasida ko`rish, so`zlash, eshitish qobiliyatini yo`qotish yoxud biron a`zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo`qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog`lig`ining boshqacha tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o`ttiz uch foizidan kam bo`lmagan qismining doimiy yo`qolishiga yoki homilaning tushishi

yoʻxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab boʻlsa va ushbu Kodeksning 126-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud boʻlmasa, qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish hisoblandi.

Bevosita qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish jinoyati tushunchasi haqida fikr yuritadigan boʻlsak, ushbu tushunchaga nisbatan bir qator yondoshuvlar ham mavjud boʻlib, ular bir-biridan xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Avvalo, badanga ogʻir shikast yetkazish tushunchasiga toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiq. Shuni alohida taʼkidlash kerakki yuridik abadiyotlarda badanga ogʻir shikast yetkazish tushunchasi haqida yagona toʻxtamga kelinmagan.

Bu esa qilmishni toʻgʻri kvalifikatsiya qilish va oʻxshash jinoyatlardan farqlashdan dastavval dastlabki tushunchani oʻrganishni taqozo etadi. Umuman olganda badanga shikast yetkazish tushunchasi haqida olimlar turlicha qarashlarni ilgari suradilar.

Ijtimoiy havfli qilmish odatda jinoyat qonuni bilan qoʻriqlanadigan obʼektga qarshi qilinadigan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi.

Ikkinchidan, sodir qilingan harakat yoki harakatsizlik aybli boʻlishi kerak, yaʼni shaxs tomonidan qilingan harakat natijasida shaxs badaniga shikast yetkazilgan boʻlishi kerak.

Qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish harakat bilan, baʼzi vaqtlarda esa, harakatsizlik bilan ham sodir qilinadi. Shu harakat yoki harakatsizlik oqibatida obʼektiv tomondan obʼektga zarar keltiriladi. Harakat orqali shikast yetkazish, deganda shu narsani tushunish kerakki, badanga shikast yetkazishda jinoyatch oʻzining kuchi bilan yoki sovuq qurol yordamida shuningdek, xoʻjalikda ishlatiladigan buyumlarni qurol sifatida ishlatish jarayonida shaxsning badaniga qasddan shikast yetkazilishi tushuniladi.

Badanga ogʻir shikast yetkazish kishi organizmiga biologik, kimyov ashyolarning taʼsir ettirilishi natijasida, shuningdek, kishi organizmiga ruhiy taʼs oʻtkazish oqibatida yetkazilishi ham mumkin. Badanga shikast yetkazilishida aybdor shaxsning oʻzi bajarmasligi ham mumkin. Bunday hollarda aybdor turli hayvonlar,

jumladan, itlar yordamidan foydalanadi. Shunday harakatlarni qilgan sub`ekt yoshiga yetmaganlar hamda o`z harakatining oqibatini anglamaydigan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Badanga shikast yetkazish jarayonida qo`llangan usullar va foydalanilgan qurollar jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta`sir qilmaydi, lekin jinoiy jazo tayinlash vaqtida e`tiborga olinishi mumkin. Mazkur jinoyatning bevosita obyekti boshqa shaxsning sog`ligini himoya qilish borasidagi ijtimoiy munosabat hisoblanadi. JKning104-moddasida nazarda tutilgan jinoyat obyektiv tomondan huquqqa xilof ravishda boshqa shaxs sog`ligiga og`ir zarar yetkazishga sabab bo`lgan harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi. Bu jinoyat bo`yicha javobgarlik boshlanishining muqarrar sharti –sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va boshlangan jinoiy oqibat o`rtasidagi sababiy bog`lanishni aniqlash. Og`ir shikast yetkazishning shartli elementlari quyidagilardir: shikast yetkazilayotgan lahzada hayot uchun xavfli; ko`rish, nutq, eshitish qobiliyatini yoki a`zosini yo`qotish yoki bajaradigan vazifasini butunlay bajara olmay qolishi; ruhiy kasallikka chalinish; 33% dan ziyod umumiy mehnat qobiliyatini butunlay yo`qotish; badanni tuzatib bo`lmaydigan darajadaxunuklashtirish¹.Jinoyat huquqi va sud tibbiyoti fanlari tomonidan badanga yetkaziladigan shikastning og`irlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan. Ular jumlasiga:

- 1) shikastning hayot uchun xavfliligi;
- 2) sog`liqqa yetkaziladigan haqiqiy ziyon;
- 3) mehnat qobiliyatini yo`qotish darajasi;
- 4) estetik mezonlar kiradi.

Bu mezonlar JK normalarida va O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Badanga yetkazilgan shikastlarning og`irlik darajasini sud-tibbiy yo`l bilan aniqlash qoidalari»da o`z ifodasini topgan. Hayot uchun xavfli shikast deganda, sodir etilayotgan vaqtida jinoyatchi tomonidan

¹ Rustambayev M.X. O`zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi.Jinoyat haqida ta`limot. Darslik. 2-nashr, to`ldirilgan vaqayta ishlangan – T.: O`zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

hayot uchun xavf tug'diruvchi shikastni yetkazish tushuniladi. Bunday shikastga tibbiy yordam ko'rsatilmasa, jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan shikast kiradi. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish shaxsning sog'ligiga turlicha shikast yetkazish yoki sog'liqning muayyan muddatga izdan chiqishida ifodalanadi. Mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasi foizlarda aniqlanadi va yetkazilgan shikast mehnat qobiliyatining qisman yoki butunlay yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Badanni tuzalmaydigan qilib xunuklashtirib yuborish estetik mezoni o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda yetkazilgan shikast natijasida jabrlanuvchi badanining xunuklashganligi uning ruhan ezilishiga olib keladi. Shikastning og'irligi oqibat-natijada, avvalo, jabrlanuvchiga uning badani xunuklashgani sabab bo'ladigan ruhan ezilishlar bilan bog'liqdir. **Bu badanga shikast yetkazishning eng ko'p tarqalgan turlaridan biridir. Bunday shikast, odatda, o'lim bilan tugaydi yoki jabrlanuvchining hayotiga bevosita xavf tug'diradi. Biror-bir oqibat yuz berishidan qat'i nazar, hayot uchun xavfli shikast yetkazilgan paytdan jinoyat tugallangan hisoblanadi va javobgarlik vujudga keladi. Yetkazilgan shikastning nima bilan tugashi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. «Badanga yetkazilgan shikastning og'irlik darajasini aniqlash qoidalarida badanga yetkaziladigan hayot uchun xavfli shikastning ro'yxati berilgan. Badanga yetkaziladigan hayot uchun xavfli shikastni kvalifikatsiya qilish uchun bunday jinoyat subyektiv tomonining eng muhim belgilarini e'tiborga olish lozim. Bunday shikast yetkazilishining o'zi (ayniqsa, ko'krak qafasi, qorin, bosh suyagiga hayot uchun xavfli jarohat yetkazish) shundan dalolat beradiki, jinoyatchining jabrlanuvchiga nafaqat og'ir jarohat yetkazishi, balki uning o'lishi mumkinligiga ko'zi yetadi. Badanga hayot uchun xavfli bo'lgan shikast yetkazishni odam o'ldirishga suiqasd qilishdan farqlash lozim.** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida: «Qasddan odam o'ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligini, uning o'z harakatlari oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga nisbatan subyektiv munosabatini inobatga olish darkor. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor shaxsni






hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qiladi, badanga og'ir shikast yetkazish shaxsning o'limiga sabab bo'lgan hollarda esa, o'limga nisbatan uning aybi ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi. Aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etishda qilmishning barcha holatlari majmuidan kelib chiqilishi, xususan, jinoyatni sodir etish usuli va quroli, tan jarohatlari soni, xususiyati va o'rni (masalan, odam hayoti uchun muhim a'zolarining jarohatlanganligi), jinoiy harakatlar to'xtashi sabablari, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan fe'latvori, o'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim»².

Aybdor badanga hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir shikast yetkazayotganida jabrlanuvchini o'ldirib qo'yishi mumkinligini nafaqat anglagan

va shunday bo'lishi ehtimoli borligini faraz qilgandagina emas, balki shunday oqibat yuz berishini xohlagan, ya'ni boshqa odamni o'ldirishga qaratilgan to'g'ri qasd bilan harakat qilgandagina uning qilmishi o'ldirishga qasd qilish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim. To'g'ri qasd odam o'ldirishga qaratilmagan bo'lsa, qasddan badanga hayot uchun xavfli bo'lgan shikast yetkazish O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Javobgarlik belgilanishining asosiy sharti – sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish bilan yuz bergan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash. Har qanday qilmishni jinoyat deb topish uchun yetkazilgan zarar va kelib chiqqan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida biz tahlil qilayotgan modda moddiy tarkibli jinoyat bo'lgani bois oqibat kelib chiqishini nazarda tutadi. Aks holda qilmish jinoyat kodeksi boshqa mustaqil moddalari bilan kvalifikatsiya etilishi lozim.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarori.



Mana shu belgilarning har birini mohiyatini to`g`ri aniqlash, sodir qilingan jinoyatni to`g`ri kvalifikatsiya qilishda muhim rol o`ynaydi.

Biz yuqorida ko`rsatib o`tilgan belgilarning har birini maxsus qism dispozitsiyasida qanday ifodalanishini ko`rib chiqamiz.

1) Jabrlanuvchining hayoti uchun xavfli bo`lgan og`ir tan jarohati yetkazish.

Hayot uchun xavf deganda, sodir etilayotgan vaqtda jinoyatchi tomonidan haqiqatdan ham jabrlanuvchi hayoti uchun xavf tug`diruvchi shikastni yetkazish tushuniladi. Bunday shikastga tibbiy yordam ko`rsatilmasa, jabrlanuvchining o`limiga sabab bo`lishi mumkin bo`lgan shikast kiradi. Bu badanga shikast yetkazishning keng yoyilgan turi bo`lib odatda jabrlanuvchini o`limiga olib keladi. Bunda biror bir oqibat yuz berishi bermasligi ahamiyat kasb etmaydi³.

Hayot uchun havfli shikast zarba berilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblandi ya`ni javobgarlikka sabab bo`ladi. Bu yerda hayot uchun havfli shikast yetkazilishi qanday oqibat bilan tugagani ham qiziq emas. Hayot uchun havfli deb kvalifikatsiya qilish uchun shikastning ko`krak qafasi, qorin sohasi va boshqa hayotiy zarur organlariga berilishini o`zi hayot uchun havfli shikast ekanligidan dalolat beradi.

Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, huquqshunoslik hamda sud meditsinasiga oid adabiyotlarda badanga shikast yetkazilishi natijasida jabrlanuvchining hayotini xavf ostida qolishi masalasiga turli fikr mulohazalar bildirilgan.

Bir qator mualliflar tan jarohatining darajasi va tan jarohatini jabrlanuvchining hayoti uchun xavfliligi tan jarohati yetkazilishi natijasida kelib chiqqan oqibatga qarab belgilanadi, degan fikrni bildirganlar.

Har qanday yuz beradigan voqelik singari, badanga shikast yetkazishda ham boshlanish, davom etish, tugash jarayonlaridan iborat bo`ladi. Badanga yetkazilgan shikastning darajasini og`irligiga baho berishda jabrlanuvchiga shikast yetkazish

³ M.X.Rustamboyev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. - Toshkent: "Adolat", 2016. - 608 b

paytini, yetkazilgan shikastning rivojlanishini hamda yetkazilgan shikastning oqibatini albatta e`tiborga olish kerak.

Amaliyotda shunday hollar uchraydiki, badanga shikast yetkazish paytida yetkazilgan jarohat jabrlanuvchining hayoti uchun xavfli bo`lmas-da, lekin vaqt o`tishi bilan o`sha jarohat jabrlanuvchining sog`lig`i buzilishi natijasida o`z ta`sirini ko`rsatib, uning hayotini xavf ostida qolishiga sabab bo`lgan. Jabrlanuvchiga yetkazilgan shikastning og`irlik darajasini aniqlab, xulosa beruvchi ekspertiza xulosasi jabrlanuvchining badanida shikast yetkazilishi oqibatida yuz bergan o`zgarishni aniqlashda faqatgina tananing shikast yetkazilgan qisminigina tekshirmasdan, balki uning butun jismini tanasini tekshirib chiqishi zarur.

Agar yetkazilgan shikast haqiqatdan ham hayot uchun xavfli deb topilsa, u holda yetkazilgan shikastni jabrlanuvchining hayoti uchun xavfli deb baholash kerak. Bu badanga shikast yetkazishni og`irlik darajasini aniqlashning yagona to`g`ri yo`lidir.

Ba`zi mualliflarning ta`kidlashicha, «Ayrim jarohatlar hattoki, ko`krak va qorin bo`shlig`iga yetkazilgan bo`lsa-da, lekin jabrlanuvchining hayotiga xavfi to`g`ilmasa, bunday harakatni og`ir shikast yetkazish, deb baholab bo`lmaydi».

Yuqorida aytib o`tilgan fikrni M.L.Avdeev tanqid qilib, o`z fikrini quyidagicha bayon qilgan: «Urush va janjal vaqtida pichoq yoki boshqa o`tkir kesuvchi qurollar bilan ko`krak va qorin bo`shlig`iga jarohat yetkazilishi natijasida jabrlanuvchining ichki organlariga o`sha qurollar orqali har xil organizm uchun zararli bo`lgan mikroblar o`rnashib qoladi, shu holning o`zi jabrlanuvchining hayotini xavf ostida qoldiradi».

Xulosa qiladigan bo`lsak, biror a`zoning yo`qotilishi yoki uning funksiyasini tamoman yo`qotilishi deganda, JKning 104-moddasi dispozitsiyasida sanab o`tilgan a`zolari birontasining yo`qotilishi yoki uning funksiyasining tamoman yo`qotilishi tushuniladi. Shuni alohida ta`kidlab o`tish kerakki, inson tanasining ba`zi a`zolari, jumladan ko`zi, qulog`i, qo`li, oyog`i juft a`zo hisoblanadi. Shu yerda savol tug`ilishi mumkin, ya`ni badanga shikast yetkazilishi natijasida tananing juft a`zolaridan bittasi yo`qotilganda yetkazilgan shikastning darajasiga qanday baho berish kerak.

Bu masalada A.A.Duboves quyidagi fikrni bildirgan: Tananing har bir a`zosi inson organizmi faoliyatida muhim vazifani bajaradi. Tanadagi juft a`zolarning bittasini tamoman yo`qotilishi ham badanga og`ir shikast yetkazish deb qaraladi.

P.A.Dubovesning fikriga qisman qo`shilish kerak. Shunday masalani hal qilishda avvalambor, juft a`zoni o`ziga xos xususiyatini, shuningdek, juft a`zolardan birini yo`qotilishi o`sha a`zoning funksiyasini tamoman yo`qotilishiga olib kelgan yoki kelmaganligini e`tiborga olish kerak. Misol uchun bitta ko`zdan ko`rish yoki bitta quloqdan eshitish qobiliyatini yo`qotish, ko`rish va eshitish darajasini pasaytirsa-da, lekin ularning funksiyasini tamoman yo`qotilishiga olib kelmaydi.

Agar jabrlanuvchining bitta qo`li yoki bir oyog`i yo`qotilsa, u holda shu a`zolarining funksiyalari tamoman yo`qotilgan, deb hisoblanadi. Chunki bir oyoq bilan qolgan jabrlanuvchi yurish imkoniyatidan mahrum bo`ladi. Yoki bir qo`lini yo`qotgan odam ikkita qo`l bilan qilinadigan harakatlarni bajarish imkoniyatini yo`qotadi. Demak, juft a`zolardan birining shikastlanishi oqibatida o`sha a`zolarning funksiyasi tamoman yo`qotilsa, u holda o`sha a`zoning yo`qotilishi yoki uning funksiyasini umuman yo`qotilishi deb qaraladi.

REFERENCES

- 1.M.Usmonaliyev, P.Bakunov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2010. - 662 b.
2. M.X.Rustamboyev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. -Toshkent: "Adolat", 2016. - 608 b.
3. M.X.Rustambayev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. I-tom: Jinoyat to`g`risida ta`limot. – T.: Ilm ziyo, 2011. – 400 b.
4. M.X.Rustambayev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. II-tom. Jazo to`g`risida ta`limot. – T.: Ilm ziyo, 2011. – 304 b.
5. M.X.Rustambayev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. III-tom. Jazo to`g`risida ta`limot. – T.: Ilm ziyo, 2011. – 315 b.
6. M.X.Rustambayev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism.